

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARIGA ONA TILINI INGLIZ TILI BILAN INTEGRATSION O'RGATISH USULLARI

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani

22-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Nishanova Nargiza Abduxamitovna

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ona tilini o'rgatish usullari va ingliz tili bilan integratsiyalab o'rganish yo'llari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalut so'zlar: integration-tiklash, didaktik, umummetodik, tamoyil, autentik material, multisensor, nutq namunasi, korrelasiya, yondashuv, verbalizatsiya, vizual, vositachi til

Ta'lim tarbiya jarayoni didaktik, psixologik, lingvistik, metodik va boshqa qonuniyatlarga amal qiladi. Ularning ayrimlari barcha fanlar uchun umumiy bo'lishi mumkin. Bu qonuniyatlar ta'limning umumdida didaktik tamoyili deyiladi. Boshqa qonuniyatlar esa ayrim fanlarni o'qitishga xos bo'lishi mumkin, masalan; ingliz tili o'qitish tamoyillari. Tamoyil tushunchasi didaktikada hali to'la hal etilmagan. Agar bir guruh tamoyillar ta'lim jarayonining qonuniyatlarini ifodalasa, ikkinchi guruh tamoyillar qaysidir nutq faoliyatining turiga xos bo'lgan qonuniyatlarni ifodalaydi, uchinchi esa til materialining qaysidir bo'limiga xos bo'lgan tamoyillardir. Oxirgisi maxsus tamoyillar deyiladi². Tamoyil (prinsip) termini «asos bo'ladigan yo'l-yo'riq, qonun-qoida» ma'nosini ifodalaydi. Ye.I.Passov fikricha, «tamoyil – o'qitish jarayoni atalmish binoning poydevoridir».

Konsepsiya va tamoyillarning to'g'ri tanlanishi darsda tashkil etiladigan faoliyatning samaradorligini ta'minlaydi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ushbu faoliyatga qiziqishlarini orttiradi. Ilmiy manbalarda boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitish konsepsiyalari va bir necha o'nlab tamoyil (printsip)larni olg'a surilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqining Ta'lim va madaniyat tadqiqotlar dasturi doirasida 2005-2006 yillarda bajarilgan EAS 89/04, Lot 1 «Good Practice and Main Principles» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotda boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning asosiy tamoyillari muhimlik mezoni asosida quyidagi tartibda umumlashtirilgan: 1) mazmunli kontekst va o'quvchi yoshiga mos mavzu tanlash (didaktik); 2) ingliz tili o'rganishga ijobiy yondashish (pedagogik); 3) xolistik o'rganish (metodologik); 4) ingliz tili amaliy mashg'ulotlarida o'quvchilarning yoshga oid psixologik va jismoniy yetuklik darajalarini to'liq inobatga olish (psixolingvistik); 5) o'quvchilarni o'zgalarga nisbatan



bag'rikenglik va turli qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash (pedagogik); 6) vizual yondashuvga ustuvor ahamiyat bergan holda boshqa nutq analizatorlarining to'liq ishtirokida o'rganish (psixologik masalalarni metodologiyaga tatbiq etish); 7) ingliz tili o'rganishga motivatsiya uyg'otish (ichki turtkini qo'zg'atish) (psixolingvistik); 8) shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish (pedagogik); 9) nutq hosil qilinishi uchun tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish (didaktik); 10) mashg'ulotlarni imkon qadar o'rganilayotgan chet tilda tashkil etish (pedagogik); 11) o'quvchilarning ingliz tilio'rganish strategiyalari va usullarini hisobga olish (didaktik). Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishning didaktik tamoyillari Ingliz tili o'qitish amaliyotida taklif etilgan qoidalar va qarashlar lingvodidaktik (tillar ta'limshunosligi) tamoyillar maqomida umumlashtirilgan va ilmiy asoslangan. Masalan, J. Jalolov nomlanishi va mohiyatida tafovutlar bo'lishiga qaramay, quyidagi didaktik tamoyillarni umumlashtirgan: tarbiyaviy ta'lim, onglik, faollik, ko'rgazmalilik, sistemalilik (izchillik), individual yondashish, (bilimlarni) puxta o'zlashtirish, o'quvchi kuchiga moslik kabilar.

N.A. Gorlova boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirgan: faollik, ko'rgazmalilik, o'quvchi salohiyatiga moslik, individual yondashish, sistemalilik. Ilmiy manbalarni o'rganib chiqib boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirish mumkin: 1. O'quvchilarning ingliz tilio'rganish usullari, strategiyalari va qobiliyatini inobatga olish. 2. Tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish. 3. Darslarda ma'noli kontekstlar va mavzuga oid nutq vaziyatlarini yaratish. 4. Mashg'ulotlarda texnik vositalardan keng foydalanilish. 5. O'quvchilarning yoshiga mos autentik materiallaridan foydalanish. 6. Nutq namunalari asosida ingliz tilio'rgatish. 7. Mavzularni obrazlashtirish (gapiruvchi qo'g'irchoqlar yordamida). Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishning psixolingvistik tamoyillari Til o'rganish aqliy faoliyat bo'lganligi tufayli uning psixologik asoslari mavjud. Aqliy faoliyat ruhshunoslikda ilmiy jihatdan tekshiriladi. Shu munosabat bilan ingliz tilio'qitishning psixologik tamoyillarini tadqiq etish ehtiyoji tug'iladi.

Ilmiy manbalarda ingliz tili o'qitishning ikkita psixologik tamoyillari ishlab chiqilgan. Psixologik tamoyillar «verbalizatsiya» (o'zga til amalda faqat og'zaki nutq orqali o'rganiladi) va «korrelatsiya» (ingliz tili materialining muayyan chegarasi aniqlanadi, birinchi galda nutq malakalarini hosil qilish uchun mo'ljallangan til birliklari majmuyi shakllanadi) nomlarini olgan.

Boshlang'ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi. U bolaning arifmetikaga, yozishga, tabiat ko'pgina boshlang'ich tushunchalarga va yana ko'pgina narsalarga o'rgatadi. O'z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang'ich sinflarda bir o'qituvchining dars berishini, integratsiyaning bir usuli deb hisoblasak ham bo'ladi.

Integratsiya so'zi lotincha integration-tiklash, "integer" butun so'zidan kelib chiqqan.

Ta'lim mazmunini integratsiyalash – dunyo tendensiyasi (g'oya, fikr, intilish). Integrativ yondashishi turli darajadagi tizimli aloqalarning obyektiv yaxlitligini aks ettiradi.

Integratsiya ilgari bo'lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasini oshirishga olib keladi.



Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o'rganish obyektlarining yaxlitligini tartibga soladi. Integrativ ta'limni tashkil etish haftasiga ikki soatga mo'ljallangan. Hafta oxirida ikki soatlik dars o'qish maqsadga muvofiqdir, bunda bolalar, bir tomondan, asosiy darslardan ancha dam olishadi, ikkinchi tomondan, keyingi haftasiga darslarga tayyorlanishadi. Bunday ikki soatlik darsni "Ijod soati", "Xayol darsi" deb nomlash mumkin. Integratsiyani amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin, muammoning mohiyati shundaki, usullarning har biridan yuz o'girib, ikkinchisidan barcha darajalarida o'qituvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralarni tuzishni kiritishidir. Muammoning bunday qo'yilishi integratsiyaning turli ta'lim pog'onalarida turli xususiyatlarga ega. Boshlang'ich maktabda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan, maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir. Ona tili va ingliz tili fanlarining yaqinligi bu ularning tilni o'rgatishidadir. Tilga xos barcha xususiyatlar, hodisalar, yozish, talaffuz qilish, gap tuzish va boshqalar bir-biriga juda yaqindir. Farqli tomoni shuki, bu tillarning biri o'quvchining o'z ona tilisi bo'lsa, ikkinchisi unga umuman begona bo'lgan ingliz tilidir. Bu fanlarni integratsiyalash o'quvchilar ikki tilni taqqoslab, o'xshash va farqli jihatlarini ajratib o'rganishlariga imkon yaratib, o'quvchilarni bir paytning o'zida ikki tilni o'zlashtirishiga yordam beradi. Bugungi kunda ona tili va ingliz tili darslari 1-sinf dan boshlab o'tilmoqda. Ona tili darsini boshlang'ich ta'limni tugallagan o'qituvchi, ingliz tilini esa shu yo'nalishni tamomlagan o'qituvchilar olib borishmoqda. Zamon talabi esa har bir jamiyat a'zosini ingliz tilini bilishini taqazo etmoqdadir. Boshlang'ich ta'limni tamomlagan yosh kadrlar esa ingliz tilini boshlang'ich sinf o'quvchilariga yetkazib bera oladigan darajada bilishlari shart hisoblanadi. Shunday ekan, ular bu fanni ham o'zlari o'tishlari mumkinligini tasdiqlaydi. Ana shundagina ular bemalol bu ikki til sohasini o'zaro bog'lashlariga zamin yartishadi.

Ammo bu ikki fanlarni bir-biriga bog'lash o'qituvchiga hamda

o'quvchilarga ayrim qiyinchiliklarni tug'diradi. Ya'ni ingliz tilini o'rganilishidagi ayrim murakkabliklarning mavjudligidir. Bu murakkablik tilning grammatika qismiga xos bo'lib, ingliz tilida o'rgatiladigan mavzu ona tilida shu sinfda o'rgatilmagligidadir. 1-sinf o'quvchilariga ingliz tilida quyidagi mavzular o'rgatiladi: kishilik olmoshi, shaxssiz gaplar, buyruq mayli, sanaladigan va sanalmaydigan otlar. Bu mavzular ona tilida: kishilik olmoshi 4-sinfda, shaxssiz gaplar, buyruq mayli, sanaladigan va sanalmaydigan otlar umuman boshlang'ich sinfda o'tilmaydi. 3-sinf ingliz tili darslarida sifatning qiyosiy, orttirma darajalari o'tiladi. Ona tili darslarida faqat sifat haqida ma'lumot beriladi. Yana ingliz tilida hozirgi zamon davom fe'li o'rgatiladi, ona tilida davom fe'li umuman o'rgatilmaydi.

Bu murakkabliklarni hal qilish albatta o'qituvchidan ijodiy fikrlashni, rejalashtirishni talab qiladi. Quyidagi mavzular bo'yicha boshlang'ich sinflarda ona tili va ingliz tillarini

integratsiyalash mumkin: alifboni o'rganish, so'roq gap, son, sifat, son, fe'l, otlar va boshqalar.

Bu fanlarni bog'laganda o'qituvchi aslo qiynalmaydi. Chunki ingliz tilining grammatikasini tushuntirish o'zbek tilida olib boriladi. Bu o'qituvchi va o'quvchiga qulaylikni keltirib chiqaradi. Dars konspektining o'zbek tilida yozish mumkinligi maqsadga muvofiqdir. Ona tili va ingliz tili darslari integratsiyasining tarbiyaviy ahamiyati shuki, bu ikki fanning alohidaligi davridagi tarbiyaviy jihatlarining uyg'unlashishidadir. Ona tili darslarida o'zbek tiliga muhabbat va so'zga ehtiyotkorlik bilan munosabatni tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Buning uchun matn puxta tanlanadi. Tilni o'rganish jarayonida leksik-uslubiy ishlarga katta o'rin beriladi.

Ona tili o'qitish jarayoni ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga qaratiladi. Ona tili darslarida har bir kishi uchun zarur bo'lgan saranjomsarishtalik, mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini ham tarbiyalaydi. Ona tili o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan.

Ingliz tilini o'rganish: ingliz tilida suhbat olib borish, ingliz tilida yozilgan ma'lumotlarni ravon o'qib, mazmunini to'la tushunish; chet mamlakatlarga chiqib o'z faoliyatini yurishitishga imkon beradi.

Adabiyotlar

K. Qosimova, S. Fuzailov, A. Ne'matova. Ona tili (2-sinf uchun darslik). — T.: Cho'lpon, 2005.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000- y.

M. Umarova, Sh. Hakimova. O'qish kitobi (3-sinf uchun darslik). — T.: Cho'lpon, 2008



ILMIY NASHRLAR MARKAZI